

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARING ESTETIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MUSIQA TARBIYASI

Sultonova Nurxon Anvarovna

Qo`qon davlat pedagogika instituti v.b. dotsenti

Bizning eng katta tayanch va suyanchimiz, hal qiluvchi kuchimiz – bu yosh avlodimizdir. Bu – O`zbekistonda tashkil etilgan, dunyo miqyosida katta qiziqish va havas uyg`otayotgan mutlaqo yangi o`quv tizimida yuksak ta`lim-tarbiya olayotgan, eski asoratlardan, qarashlardan uzoq bo`lgan, zamonaviy kasb-hunarlarni o`zlashtirgan, mustaqil fikrlaydigan, ertangi kunga intilayotgan bizning farzandlarimizdir.

Shaxsni rivojlantirish uchun avvalo, uning xulqiga ta`sir etuvchi omillarni, uning tabiatini, qiziqishini o`rganish lozim. Buning uchun shaxsni turli munosabatlar doirasiga qo`yib kuzatish kerak. Ana shundagina uning ijtimoiy xulqi ma`naviy qiyofasi, insoniy fazilatlari ro`yobga chiqadi. «Har bir inson, – degan edi Abu Nosir Al Forobi, – o`z tabiati bilan shunday tuzilganki, unda yashash va yuksaklikka erishish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug`iladi, shu sababli u ko`p narsalarda boshqalarning o`zaro yordamlashuvi orqali yetuklikka erishadi». Sog`lom avlodni har tomonlama tarbiyalash vositalari ichida musiqa va tasviriy san`at alohida o`rin egallaydi. U inson aql – idrokigagina emas, balki qalbiga, his – tuyg`ulariga ham ta`sir qiladi. Uning kuchi va qudrati ham ana shundadir. His-tuyg`ularga ta`sir etish esa bolalarning estetik ong, idrok, madaniyat va tafakkurlarining rivojlanishiga ta`sir etadi. Bu o`z navbatida bolaning estetik tarbiyalanishiga zamin yaratadi.

Estetik tarbiya – eng avvalo har bir kishida badiiy hissiyot tuyg`ularini, badiiy didni tarbiyalashdir. Ilmiy dunyoqarashga asoslangan nafosat, did, xis-tuyg`ular va ko`nikmalarning o`sib borishi jarayonida insonning o`zi ham ma`naviy boyib, hayoti yanada sermazmun bo`ladi. Yashayotgan zamoniga nisbatan mehr-muhabbati ortib boradi. Bularning hammasi har bir insonda go`zallikni xunukdan, jirkanchlikdan farq qila bilish qobiliyatini shakllantiradi, uni yanada rivojlanadir.

Estetik tarbiya bugungi kunda shunisi bilan muhimki, did-farosatlilik mehnatda, ishlab chiqarishda, kundalik amaliy faoliyatda – har bir inson uchun hayotiy ehtiyojga aylanib qolgan.

Shaxsning estetik xususiyatlari tug`ma emas, ammo ular ijtimoiy muhit va faol pedagogik rahbarlik sharoitida ilk yoshdan boshlab rivojlanib boradi. Estetik rivojlanish jarayonida bolalarni estetik idrok, tasavvur, tushunchalar, mulohazalar, qiziqishlar, xis-tuyg`ular, badiiy va ijodiy qobiliyatlarni tarkib toptirish amalga oshiriladi.

Bolalarning estetik rivojlanishi ularning kundalik jo`shqin hayotidagi musiqa bilan chambarchas bog`liqdir.

Musiqa tinglashni har qanday musiqiy jarayonda qo`sish qulash, ritmik harakatlar bajarish, musiqiy cholg`ularda jo`r bo`lish, musiqa savodi jarayonlarida ham o`rganish mumkin. «Musiqani sevish uchun, avvalambor, uni tinglay olish kerak...» - degan rus kompozitori D. Shostakovich. Musiqani idrok etish masalalariga bir qator rus olimlari N.Vetlugina, Ye.Gorskaya, G.Rigina, N.Grodzenskayalar murojaat qilganlar. Musiqani his qilish, anglash, tushunish uchun uni tinglay olish muhimdir.

Ilk yoshdagi bolalarni nazarda tutganda, xali ularning estetik tarbiyasi to`g`risida emas, balki ularning xissiy va sensor rivojlanishi to`g`risida o`ylash kerak. Bola bir maromdag'i tovush va harakatlardan huzur qiladi. Bola hayotining birinchi yilida ularning sensor-hissiy qabul qiluvchanligi takomillashib boradi. Bu yoshdagi bolada hissiy kechinmalarning shakllanishida kattalar muhim rol o`ynaydi. Kattalarning ochiq yuz bilan jo`shqin ohangda gapirishlari bolaga buyumlarning u yoki bu xususiyatlariga ijobiy munosabatda bo`lishlariga yordam beradi. Va,

aksincha, kattalarning ogoxlantiruvchi ovozi, ular yuzidagi tundlik alomati yoki ho'mrayib qarashlari, jerkib, siltab tashlashlari va hokazolar bolalarda shu buyumga yoki uning sifatiga salbiy munosabatni shakllantiradi.

Bola hayotining ikkinchi yilida uning idroki sekin-asta takomillasha boradi. Bolalar endi faqat borliq xususiyatlarini emas, shu bilan birga san'at asarlaridagi ayrim es-tetik ifoda vositalarini ham idrok eta boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarda musiqaning quvnoq va g'amgin kuylariga, ularning qattiq va sokin ohangiga, ohista va tezligiga javob ta'siri paydo bo'ladi va hokazo.

O'rta guruhgaga kelganda bolalar estetik idrokining rivojlanishida muhim o'zgarishlar yuz beradi. Ularning estetik idroki ancha aniq va tabaqalashgan bo'lib qoladi. Ammo shunga qaramay, u qisqa-qisqa bo'lib, bolaning shaxsiy tajribasi va qiziqishiga bog'liq bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar badiiy obrazni eng oddiy estetik baholay oladilar, ba'zi bir estetik vositalarni to'g'ri anglaydigan, tasvir mohiyatini tushunadigan bo'lib qoladilar.

Bu yoshdagi bolalar tanish bo'lgan san'at asarlarini yangi asarlar bilan solishtiradilar va ba'zi bir xulosalar chiqaradilar. Bolalar she'rni nasrdan, badiiy asarning ba'zi bir janrlarini, tasviriylar va musiqaning bir xil turlarini (ertakni hikoyadan, marshni raqsdan, allani o'yindan va hokazo) bir-biridan ajrata boshlaydilar.

Tasvirda badiiy, musiqa, teatrlashtirish kabi hamma faoliyatlarda qo'yilgan vazifani bajarishda mustaqillik, ijodkorlikka intilish namoyon bo'la boshlaydi. Bolalar o'yinga tushganda, ashula aytganda, sahnalashtirish o'yinlarida obrazlarning ifodali bo'lishiga ongli ravishda intila boshlaydilar.

Katta guruhning oxirlariga kelganda ular musiqani, badiiy asarlarni diqqat bilan tinglaydilar, ulardagi ijobiy qahramonlarning xatti-harakatlaridan quvonadilar, yomonlikni qoralaydilar. Bolada musiqaviy va shoirona tinglash qobiliyati rivojlanadi. Ularda ayrim musiqa janrlariga, adabiy va tasviriylar san'at asarlariga nisbatan barqaror qiziqish paydo bo'ladi.

Eshitayotgan musiqa asarlari, o'qilayotgan she'rlarning eng nozik tomonlarini ko'ra biladilar, sezalarning boshlaydilar. Musiqiy asarlardagi ba'zi ba'zi obrazlarni eslab qoladilar, ohanglarni hirgoyi qiladilar. Musiqi orqali tevarak-atrofdagi go'zallikka, san'atga, badiiy va o'yin faoliyatining har xil turlariga nisbatan ularda qiziqish shakllana boshlaydi. Hattoki, bu yoshdagi bolalar televizorda berilayotgan musiqiy kliplarni ajratadilar, kuy va ohangi yoqqanini qayta-qayta tinglashni xohlaydilar.

Shunday qilib, maktabgacha yosh davrida tarbiyaviy ta'sir orqali bolalarni estetik ruhda tarbiyalash maqsadlaridan va uning bola shaxsini shakllantirishda tutgan o'rnidan kelib chiqib, estetik rivojlanishlarini takomillashtirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari Ro'yxatdan o'tish. 03.07.2018 yildagi 3032-sont.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlanish Konsepsiysi to'g'risida"gi PQ-4312-sont Qarori / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019-y., 07/19/4312/3106-sont; 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-sont.
3. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (takomillashtirilgan) 2022-yil nashr etilgan dasturi.
4. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=ozrGWXoAAAAJ&citation_for_view=ozrGWXoAAAAJ:_FxGoFyzp5QC
5. G Nazirova. Мактабгача катта ёшдаги болаларда халқ оғзаки ижоди воситасида миллий түрүп ҳиссини шакллантириш-ижтимоий педагогик зарурият сифатида. Science and innovation 1 (B8), 2067-2077

6. GM Nazirova. CONTENT AND PEDAGOGICAL CONDITIONS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF PEDAGOGUES-EDUCATORS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS/ International Academic Research Journal Impact Factor 7 (1), 6
7. NG Malikovna, MM Nurmatovna, Basic principles of technology for teaching methodological subjects in preschool education, ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact.
8. EM Akilovna, THE COMPETENCE OF THE EDUCATOR IN THE APPLICATION OF TECHNOLOGIES FOR THE ORGANIZATION OF HEALTH CARE WORK FOR CHILDREN OF PRESCHOOL AGE, INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN ...
9. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=x8zmCUkAAAAJ&citation_for_view=x8zmCUkAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC

